



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TA'LIM MUASSASALARIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ahmedov Akrom Abralovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti, dotsent vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik, tashkiliy va me'yoriy-huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Sport faoliyatining yuqori harakat faolligi, jismoniy yuklamalar, sport jihozlari va inshootlaridan foydalanish bilan bog'liq xususiyatlari xavfsizlikni ta'lim va mashg'ulot jarayonining ajralmas komponenti sifatida shakllantirish zaruratini yuzaga keltirishi asoslangan. Sport ta'limi jarayonida uchraydigan xavf manbalari texnik, tashkiliy, tibbiy-fiziologik va ijtimoiy-psixologik guruhlarga ajratilib, ularni aniqlash, baholash va profilaktika qilish yo'llari tizimlashtirilgan. Favqulodda vaziyatlarning tabiiy, texnogen, ekologik va ijtimoiy xususiyatdagi turlari jismoniy tarbiya va sport ta'limi sharoitiga moslashtirilgan holda tavsiflangan. Trenerning xavfsizlik kompetensiyasi kognitiv, diagnostik, prognostik, tashkiliy-amaliy, tezkor harakat va refleksiv komponentlarning integratsiyasi sifatida yoritilgan. Tadqiqot natijasida "xavfni aniqlash - baholash - profilaktika - tayyorgarlik - tezkor harakat - tahlil va tuzatish" bosqichlariga asoslangan xavfsizlikni pedagogik boshqarish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, jismoniy tarbiya, sport ta'limi, xavf, favqulodda vaziyat, xavfsizlik kompetensiyasi, trener, profilaktika, risklarni boshqarish.

Abstract: The article provides a systematic analysis of the pedagogical, organizational, and regulatory-legal foundations for ensuring life safety in physical education and sports educational institutions. It is substantiated that high levels of motor activity, physical loads and the use of sports equipment and facilities require safety to be considered an integral component of the educational and training process. Risk sources encountered in sports education are classified into technical, organizational, medical-physiological and socio-psychological groups, and approaches to their identification, assessment and prevention are systematized. Natural, technological, environmental and social emergencies are characterized in relation to the specific conditions of physical education and sports institutions. The safety competence of a teacher-coach is interpreted as an integration of cognitive, diagnostic, prognostic, organizational-practical, emergency-response and reflective components. Based on the analysis, a pedagogical safety management model consisting of the stages "risk identification - assessment - prevention - preparedness - emergency response - analysis and correction" is proposed.

Key words: life safety, physical education, sports education, risk, emergency, safety competence, teacher-coach, prevention, risk management.

Аннотация: В статье системно проанализированы педагогические, организационные и нормативно-правовые основы обеспечения безопасности жизнедеятельности в учреждениях физкультурно-спортивного образования. Обосновано, что высокая двигательная активность, физические нагрузки, использование спортивного оборудования и сооружений требуют рассмотрения безопасности в качестве неотъемлемого компонента образовательного и тренировочного процесса. Источники риска классифицированы на технические, организационные, медико-физиологические и социально-психологические группы, систематизированы способы их выявления, оценки и профилактики. Чрезвычайные ситуации природного, техногенного, экологического и социального характера рассмотрены применительно к условиям физкультурно-спортивного образования. Компетентность преподавателя-тренера в области безопасности представлена как интеграция когнитивного, диагностического, прогностического, организационно-практического, оперативного и рефлексивного компонентов. Предложена педагогическая модель управления безопасностью, включающая этапы "выявление риска - оценка - профилактика - подготовка - оперативное действие - анализ и коррекция".

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, физическая культура, спортивное образование, риск, чрезвычайная ситуация, компетентность в области безопасности, преподаватель-тренер, профилактика, управление рисками.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish ta'lim sifati va ta'lim muhitining barqarorligini belgilovchi ustuvor shartlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir insonning xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqi kafolatlangan [1; 42-moddal]. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyil ta'lim muassasalari, jumladan, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi tashkilotlarda xavfsiz muhitni shakllantirishning fundamental huquqiy asosini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining o'ziga xosligi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki mazkur jarayon yuqori harakat faolligi, turli intensivlikdagi jismoniy yuklamalar, maxsus sport jihozlari va inshootlaridan foydalanish, ochiq va yopiq maydonlarda mashg'ulotlar tashkil etish hamda ko'p sonli ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida xavfni aniqlash, baholash, boshqarish va o'quvchilarga xavfsizlik talablarini tushuntirish o'qituvchining murakkab pedagogik vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi [6; 16-28-b.]. Jismoniy faollikning o'zi muayyan darajada xavfni o'z ichiga olishi sababli pedagogning vazifasi har qanday jismoniy faollikni cheklash emas, balki xavfni maqbul darajada boshqarish orqali xavfsiz ta'lim muhitini yaratishdan iborat.

Sport ta'limida xavfsizlik tushunchasini faqat texnika xavfsizligiga rioya etish bilan cheklash yetarli emas. U jismoniy yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish, sportchilarning funksional holatini hisobga olish, sport jihozlari va mashg'ulot joyini nazorat qilish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish, yong'in va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, birinchi yordam hamda ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni o'z ichiga oluvchi kompleks tizim sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida", "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" va "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlari xavfsizlikni ta'minlashning umumiy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilaydi [2; 3; 4; 5].

Sport faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar esa xavfsizlikni boshqarishda profilaktika ustuvor bo'lishi, xavf manbalari mashg'ulot boshlanishidan oldin aniqlanishi va baholanishi zarurligini ko'rsatadi [7; 511-514-b.]. Bu jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiyning xavfsizlikka oid kompetensiyalarini rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga asos bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy va pedagogik asoslarini tizimlashtirish, sport faoliyatiga xos xavf manbalari hamda favqulodda vaziyatlarni tasniflash va trenerning xavfsizlik kompetensiyasiga asoslangan pedagogik boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya va sport ta'limida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash masalasi pedagogik va huquqiy jihatdan keng o'rganilgan. Porsanger tadqiqotlarida jismoniy tarbiya o'qituvchisining xavfni aniqlash, baholash, boshqarish va o'quvchilarga xavfsizlik talablarini tushuntirishdagi roli alohida ta'kidlangan [6]. Xie va Daplat sport xavfsizligini boshqarishda jarohat sodir bo'lgandan keyingi choralar emas, balki xavf manbalarini oldindan aniqlash va profilaktika qilish ustuvor ekanligini asoslagan [7]. Shuningdek, sport jarohatlari profilaktikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda jihozlari xavfsizligi, mashg'ulot joyining talabga muvofiqligi, qizdirish mashqlari hamda pedagog nazoratining muhimligi qayd etilgan [8; 9; 10].

Mazkur ilmiy qarashlar sport ta'limida xavfsizlikni pedagogik boshqarish va trenerlarning xavfsizlik kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, 2021-2024-yillarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida xavflarni boshqarish hamda sport jarohatlari profilaktikasiga bag'ishlangan xorijiy ilmiy tadqiqotlar o'rganildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish;
- ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish;
- xavf omillarini tasniflash va tizimlashtirish;
- pedagogik modelashtirish;
- nazariy umimlashtirish.



Tahlil jarayonida “xavf manbai - xavfning ehtimoliy oqibati - profilaktika chorasi - mas’ul subyekt - favqu-lodda vaziyatdagi harakat” mantiqiy zanjiri asosiy metodologik mezon sifatida qabul qilindi.

Xorijiy tadqiqotlarda jismoniy tarbiya o’qituvchilarining xavfni boshqarishga oid bilimi va amaliy qarorlarida tafovutlar mavjudligi qayd etilgan [6; 16-28-b.]. Shu sababli mazkur tadqiqotda xavfsizlik faqat normativ talab sifatida emas, balki trenerning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi sifatida ham tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi xavflarning o’ziga xos xususiyatlari.

Sport faoliyati jarayonida xavfning mutlaq yo’qligini ta’minlash amalda murakkab. Buning asosiy sababi jismoniy mashqlarning dinamik xarakterga egaligi, harakatlarni bajarish tezligi, yuklamalarning intensivligi va tashqi sharoitlarning o’zgaruvchanligidir.

Xie va Dapat sport xavfsizligini boshqarishning asosiy vazifasi xavf sodir bo’lgandan keyin uning oqibatlarini bartaraf etish emas, balki xavf manbalarini oldindan aniqlab, jarohatlanish ehtimolini kamaytiruvchi boshqaruv tizimini yaratishdan iborat ekanini ta’kidlaydi [7; 511-513-b.].

Jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlaridagi xavflarni kelib chiqish manbaiga ko’ra to’rtta guruhga ajratish mumkin (1-jadval).

1-jadval: Jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlaridagi xavf manbalarining tasnifi

Xavf turi	Asosiy manbalar	Ehtimoliy oqibat	Profilaktik chora
Texnik	Nosoz jihozlar; sirpanchiq yoki notekis maydon; elektr qurilmalaridagi nosozlik	Yiqilish, urilish, mexanik yoki elektr shikasti	Jihoz va inshootlarni mashg’ulotdan oldin tekshirish
Tashkiliy	Yo’riqnoma berilmasligi; nazoratsiz mashg’ulot; yuklamaning tayyorgarlikka mos emasligi	Jarohat xavfining ortishi, tartibsizlik	Yo’riqnoma, pedagogik nazorat va mashg’ulotni bosqichma-bosqich tashkil etish
Tibbiy-fiziologik	Haddan tashqari yuklama; qizdirishning yetarli emasligi; tibbiy nazoratsiz ishtirok	Toliqish, funksional zo’riqish, mushak-bo’g’im jarohatlari	Yuklamani individuallashtirish va tibbiy-pedagogik nazorat
Ijtimoiy-psixologik	Nizo, bulling, kuchli ruhiy bosim, vahima, doping va axborot xavflari	Stress, xulq buzilishi, xavfli qarorlar	Sog’lom psixologik muhit, intizom va pedagogik nazorat

Sport jarohatlarining oldini olishga oid tadqiqotlar jihozlarning xavfsizligi, sport maydoni qoplamasining talabga muvofiqligi, o’qituvchi ko’rsatmalariga amal qilish va yetarli qizdirish mashqlarini bajarish jarohatlar xavfini kamaytirishda muhim ekanligini ko’rsatadi [8; 313-327-b.].

Demak, sport mashg’ulotidagi xavfsizlik mashg’ulot boshlangunga qadar amalga oshiriladigan profilaktik tekshiruvdan boshlanishi lozim.

Xavfsizlikni ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslari

Hayot faoliyati xavfsizligi tizimi bir necha darajadagi normativ hujjatlarga asoslanadi.

Birinchi darajani O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil qiladi. Unda inson hayoti, sog’lig’i va qadr-qimmatining oliy qadriyat ekanligi hamda xavfsizlik va gigiyena talablariga mos sharoitlarda mehnat qilish huquqi mustahkamlangan [1; 42-modda].

Ikkinchi darajani O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hamda “Mehnatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonun tashkil etib, ular xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlarni xavfsizlik talablariga o’qitish, zararli va xavfli omillarning oldini olish bo’yicha ish beruvchi va xodimning huquq hamda majburiyatlarini belgilaydi [2; 3].

Uchinchi daraja favqulodda vaziyatlar va yong’in xavfsizligi bilan bog’liq. “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonunda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi xavfsizligini ta’minlash va oqibatlarini bartaraf etish mexanizmlari belgilangan [4]. “Yong’in xavfsizligi to’g’risida”gi Qonun esa yong’in profilaktikasi, odamlarning hayoti va sog’lig’ini himoya qilish hamda yong’in xavfsizligi talablariga rioya etishning huquqiy asoslarini belgilaydi [5].

Mazkur normalar sport ta’limi amaliyotida muassasaning ichki yo’riqnomalari, sport inshootlaridan foydalanish tartibi, evakuatsiya rejasi, mashg’ulot va musobaqa reglamentlari orqali konkretlashtirilishi lozim.



Favqulodda vaziyatlarning sport ta'limiga moslashtirilgan tasnifi

Sport ta'lim muassasalarida xavfsizlikni tashkil etish jarayonida favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini bilish alohida ahamiyatga ega. Ularni to'rtta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval: Sport ta'lim muassasalarida favqulodda vaziyatlar tasnifi

Favqulodda vaziyat turi	Sport ta'limida uchrashi mumkin bo'lgan holatlar	Birlamchi harakat
Tabiiy	Zilzila, sel, suv toshqini, kuchli shamol, yashin, anomal issiq yoki sovuq	Mashg'ulotni to'xtatish, xavfsiz hududga yo'naltirish, evakuatsiya
Texnogen	Yong'in, portlash, elektr avariyasi, gaz sizishi, inshoot yoki jihoz qulashi	Xavf zonasidan chiqarish, energiya manbasini uzish imkonini baholash, tezkor xizmatlarga xabar berish
Ekologik	Havoning keskin ifloslanishi, zaharli gaz, suv yoki tuproq ifloslanishi, radiatsion xavf	Mashg'ulotni bekor qilish, xavfli hududni tark etish, tegishli xizmatlar ko'rsatmalariga amal qilish
Ijtimoiy	Ommaviy tartibsizlik, vahima, zo'ravonlik, terrorchilik tahdidi, shubhali buyum	Ishtirokchilarni nazoratga olish, xavfsiz hududga yo'naltirish, vakolatli xizmatlarga xabar berish

Mazkur tasnif favqulodda vaziyatning xususiyatiga mos tezkor algoritmnini oldindan ishlab chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, sport majmualari va stadionlarda ishtirokchilar sonining ko'pligi evakuatsiya yo'llari, chiqish eshiklari, yig'ilish hududlari va mas'ul shaxslarning vazifalarini oldindan belgilashni talab etadi.

Trenerning xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari sharoitida trener xavfsizlik tizimining bevosita ijrochisi hisoblanadi. Uning mashg'ulot boshlanishidan oldingi vazifalariga:

- sport zali yoki maydonning holatini ko'zdan kechirish;
- anjomlarning sozligi va mustahkamligini tekshirish;
- mashg'ulot yuklamasini o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligiga muvofiqlashtirish;
- xavfsizlik bo'yicha qisqa va aniq yo'riqnoma berish;
- alohida nazorat talab qiladigan o'quvchilar holatini hisobga olish kiradi.

Mashg'ulot davomida esa pedagog o'quvchilarning jismoniy va psixologik holatini kuzatishi, mashq bajarish texnikasini nazorat qilishi hamda xavf belgisi paydo bo'lganida mashg'ulotni o'z vaqtida to'xtata olishi kerak.

Porsangerning tadqiqotida jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun xavfni aniqlash, baholash, boshqarish va o'quvchilarga tushuntirish bir-biridan ajralmaydigan faoliyatlar ekanligi ko'rsatilgan [6; 16-28-b.].

Bu holat trener tayyorgarligida xavfsizlik kompetensiyasini alohida kasbiy komponent sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Trenerning xavfsizlik kompetensiyasi

Tadqiqot natijasida trenerning xavfsizlik kompetensiyasini quyidagi tarkibiy komponentlar orqali ifodalash taklif etiladi:

- 1. Kognitiv komponent** - hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar va birinchi yordamga oid bilimlar.
- 2. Diagnostik komponent** - sport maydoni, jihozlar, tashqi muhit va o'quvchi holatidagi xavf omillarini aniqlash qobiliyati.
- 3. Prognostik komponent** - mashq yoki vaziyatning ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilish.
- 4. Tashkiliy-amaliy komponent** - mashg'ulotni xavfsiz tashkil etish, yo'riqnoma berish va ishtirokchilar harakatini boshqarish.
- 5. Tezkor harakat komponenti** - favqulodda vaziyat yuzaga kelganida mashg'ulotni to'xtatish, evakuatsiya qilish, birinchi yordam va tezkor xizmatlar bilan aloqani tashkil etish.
- 6. Refleksiv komponent** - sodir bo'lgan hodisa yoki xavfli vaziyat sabablarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va keyingi mashg'ulotga tegishli tuzatishlar kiritish.




Trener va jismoniy tarbiya o'qituvchilarini maqsadli o'qitish profilaktik dasturlarni amalda qo'llash darajasini oshirishi tajribaviy tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Jumladan, murabbiylar uchun maxsus ta'lim mashg'ulotlari jarohatlarning oldini olish dasturlariga rioya etishni yaxshilagan [9; 348-354-b.].

Shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash dasturiga jarohatlar haqida xabardorlik va amaliy profilaktik strategiyalarni kiritish kelajakdagi pedagoglarning kasbiy faoliyati uchun muhim ekanligi qayd etiladi [10; 1-11-b.].

Xavfsizlikni pedagogik boshqarish modeli

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar asosida jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasasida hayot faoliyati xavfsizligini boshqarishning quyidagi pedagogik modeli ishlab chiqildi:



Modelning birinchi bosqichida xavf manbalari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda ularning yuzaga kelish ehtimoli va oqibatining og'irligi baholanadi. Uchinchi bosqichda xavfni bartaraf etish yoki uning darajasini pasaytirishga qaratilgan profilaktik chora belgilanadi.

Keyingi bosqich o'quvchilarni xavfsiz harakatga tayyorlashdan iborat. Bunda yo'riqnoma faqat qoidalarni sanab o'tishga emas, balki muayyan vaziyatda qanday harakat qilishni tushuntirishga qaratilishi zarur.

Mashg'ulot davomida doimiy monitoring olib boriladi. Agar vaziyat odatdagi pedagogik nazorat chegarasidan chiqsa, tezkor harakat bosqichiga o'tiladi.

Hodisadan keyingi tahlil esa modelning yakuniy emas, balki yangi siklning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Aniqlangan xatolar keyingi mashg'ulotlarni rejalashtirishda hisobga olinishi orqali xavfsizlik tizimining uzluksiz takomillashuvi ta'minlanadi.

Shu jihatdan ushbu model an'anaviy "hodisa - javob chorasini ko'rish" yondashuvidan "xavfni prognoz qilish - profilaktika - monitoring - tezkor harakat - refleksiya" yondashuviga o'tishni nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy-tahliliy tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligi o'quv-mashg'ulot jarayonining yordamchi emas, balki uning ajralmas va tizim hosil qiluvchi tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, sport faoliyatidagi xavflarni texnik, tashkiliy, tibbiy-fiziologik va ijtimoiy-psixologik guruhlariga ajratish xavf manbalarini tizimli aniqlash va ularga nisbatan maqsadli profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi.

Ikkinchidan, xavfsizlikni ta'minlashning samaradorligi faqat sport inshooti yoki jihozning texnik holatiga emas, balki mashg'ulotning to'g'ri rejalashtirilishi, jismoniy yuklamaning individuallashtirilishi, o'qituvchi nazorati va o'quvchi-sportchilarning xavfsizlik madaniyatiga ham bog'liq.

Uchinchidan, tabiiy, texnogen, ekologik va ijtimoiy favqulodda vaziyatlar uchun oldindan ishlab chiqilgan harakat va evakuatsiya algoritmlari sport ta'lim muassasasining xavfsizlikka tayyorgarlik darajasini oshiradi.

To'rtinchidan, trenerning xavfsizlik kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanmasligi, balki xavfni diagnostika qilish, prognozlash, tezkor qaror qabul qilish, evakuatsiya, birinchi yordam va hodisadan keyingi refleksiv tahlil ko'nikmalarini ham o'z ichiga olishi zarur.



Beshinchidan, pedagog va murabbiylarni maxsus profilaktik dasturlar asosida muntazam o'qitish xavfsizlik choralarining amalda qo'llanishini yaxshilaydi [9; 348-354-b.; 10; 1-11-b.].

Shu asosda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida hayot faoliyati xavfsizligini vaziyatli keyslar, xavfni baholash chek-listlari, evakuatsiya mashqlari, sport anjomlarini xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholash va birinchi yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan "xavfni aniqlash - baholash - profilaktika - tayyorgarlik - monitoring - tezkor harakat - tahlil va tuzatish" modeli sport ta'lim muassasalarida xavfsizlikni boshqarish jarayonini tizimlashtirish, trenerlarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va o'quvchi-sportchilarda barqaror xavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktabrdagi O'RQ-798-son Qonun bilan tasdiqlangan. - Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni: 2016-yil 22-sentabrdagi O'RQ-410-son. - Toshkent, 2016.
4. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni: 2022-yil 17-avgustdagi O'RQ-790-son. - Toshkent, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni: 2009-yil 30-sentabrdagi O'RQ-226-son. - Toshkent, 2009.
6. Porsanger L. Risk and safety management in physical education: teachers' knowledge // Physical Education and Sport Pedagogy. - 2023. - Vol. 28, No. 1. - P. 16-28. - DOI: 10.1080/17408989.2021.1934663.
7. Xie L., Daput R. O. PE Risk Management in Colleges and University // The Educational Review, USA. - 2023. - Vol. 7, No. 4. - P. 511-514. - DOI: 10.26855/er.2023.04.022.
8. دمحم قفوقوب. Preventive measures to avoid injuries during sports activity in the school // Journal of Sport Science Technology and Physical Activities. - 2022. - Vol. 19, No. 1. - P. 313-327. - DOI: 10.5281/zenodo.15291756.
9. Ling D. I., Boyle C., Schneider B., Janosky J., Kinderknecht J., Marx R. G. Coach Education Improves Adherence to Anterior Cruciate Ligament Injury Prevention Programs: A Cluster-Randomized Controlled Trial // Clinical Journal of Sport Medicine. - 2022. - Vol. 32, No. 4. - P. 348-354. - DOI: 10.1097/JSM.0000000000000936.
10. Goossens L., Cardon G., Witvrouw E., Verhagen E. A. L. M., De Clercq D. An Injury Prevention Programme in Physical Education Teacher Education Students: Process Evaluation Using the RE-AIM Sports Setting Matrix // Translational Sports Medicine. - 2024. - Vol. 2024. - Article ID 5717748.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.